



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETINING
BUYRUG‘I**

BUYRUQdan ko‘chirma № 191 Sh/T 26.06.2025 yil

I. Farg‘ona davlat texnika universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha sohaga oid hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 369-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash va Farg‘ona davlat texnika universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha hujjatlarni (korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro hamkorligi to‘g‘risida tartib hamda korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar bo‘yicha xabar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni) tasdiqlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 369-sonli buyrug‘i bilan:

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” 1-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” 2-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom” 3-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti” 4-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yichayo‘riqnoma” 5-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma” 6-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti” 7-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti” 8-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament” 9-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma” 10-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. Mazkur buyruq bilan Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubi faoliyati to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga, **“Farg‘ona davlat texnika universitetning** korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” 3-ilovaga, huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro hamkorligi to‘g‘risidagi tartibi 4-ilovaga, korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar bo‘yicha xabar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Universitetga ishga qabul qilinayotgan barcha professor-o‘qituvchi va xodimlarni **“Farg‘ona davlat texnika universitetning** korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” bilan to‘liq tanishtirilsin va tanishganligini imzosi bilan tasdiqlash amaliyoti joriy etilsin.

4. Yuqorida nomlari keltirilgan hujjatlarni tegishlilik bo‘yicha ijrosini ta‘minlash vazifasi Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (O.Xomidov) va xodimlar bo‘limi boshlig‘i (E.Rajabova) hamda Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor zimmlariga yuklatilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 369-sonli buyrug‘i va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 28-iyundagi “Oliy ta‘lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 281-sonli buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 5-martdagi “Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 120-sonli buyrug‘iga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i v.v.b. O.Xomidovning buyruq loyihasi.

Rektor:

U.R.Salomov

